



## LEGAL FOUNDATIONS AND PRACTICAL CHALLENGES OF PROTECTING YOUTH FROM CYBER HARASSMENT IN THE DIGITAL SPACE

**MUKHTAROV ABDUJALIL ABDUKAMOL UGLI**

Senior Lieutenant, Operative Officer of the Criminal Investigation  
Department, Fergana District Department of Internal Affairs,  
Fergana Region

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17340810>

### ARTICLE INFO

Received: 05<sup>th</sup> October 2025

Accepted: 10<sup>th</sup> October 2025

Online: 13<sup>th</sup> October 2025

### KEYWORDS

cyberspace, cyberstalking,  
cybersecurity, cyberbullying,  
gender equality, information  
security, human rights.

### ABSTRACT

*This article analyzes the issues of protecting young people from cyber harassment in the digital space, the concept of cyberstalking and its legal essence. Additionally, experiences in combating cyber harassment are examined through examples of foreign countries' legislation, and proposals for improving the legislation of the Republic of Uzbekistan are developed.*

## RAQAMLI MAKONDA YOSHLARNI KIBER TA'QIBDAN HIMOYA QILISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA AMALIY MUAMMOLARI

**MUXTOROV ABDUJALIL ABDUKAMOL O'G'LI**

Farg'ona viloyati IIB Farg'ona tumani IIB TQX JQB tezkor vakili, katta leytenant

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17340810>

### ARTICLE INFO

Received: 05<sup>th</sup> October 2025

Accepted: 10<sup>th</sup> October 2025

Online: 13<sup>th</sup> October 2025

### KEYWORDS

kibermakon, kiberstalking,  
kiberxavfsizlik, kiberbulling,  
gender tengligi, axborot  
xavfsizligi, inson huquqlari.

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada raqamli makon sharoitida yoshlarni kiber ta'qibdan himoya qilish masalalari, kiberstalking tushunchasi va uning huquqiy mohiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, xorijiy davlatlar qonunchiligi misolida kiber ta'qibga qarshi kurashish tajribalari o'rganilib, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi.*

Zamonaviy texnologiyalar va sun'iy intellekt taraqqiyoti insoniyat hayotining barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda. Bu jarayon raqamlashtirishning afzalliklari bilan bir qatorda, inson huquq va erkinliklariga tahdid soluvchi yangi xavf — kiberjinoyatlar va, xususan, kiber ta'qib (kiberstalking) muammosini ham keltirib chiqarmoqda.

Bugungi kunda nafaqat insonlar tomonidan, balki sun'iy intellektga asoslangan kiberxavfsizlik vositalari orqali ham axborot himoyasini ta'minlash keng qo'llanilmoqda. Biroq bu jarayonda sun'iy intellekt inson huquqlari va erkinliklariga ziyon yetkazmasligi, balki ularni himoya qilishga xizmat qilishi zarur.



O'zbekiston Respublikasida raqamli muhitni rivojlantirish bo'yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Prezidentning 2020-yil 5-noyabrdagi PF-6079-son Farmoni bilan tasdiqlangan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi<sup>1</sup> mamlakatda axborot texnologiyalari asosida faoliyat yurituvchi fuqarolik jamiyatini shakllantirish, raqamli madaniyat va kiberetika darajasini oshirishni maqsad qilgan.

Kiberstalking tushunchasi huquqiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinayotgan bo'lsa-da, uning umumiy mohiyati shundan iboratki, u shaxsga nisbatan internet yoki boshqa raqamli vositalar orqali takroriy, istalmagan tarzda bezovta qilish, ta'qib etish, shuningdek, psixologik, axloqiy yoki jismoniy zarar yetkazish maqsadida sodir etiladigan xatti-harakatlar majmuasini anglatadi.

Mazkur holat o'z tabiatiga ko'ra an'anaviy stalking (ta'qib qilish) huquqbuzarligining virtual yoki raqamli makondagi modifikatsiyasi sifatida namoyon bo'ladi. Ya'ni, kiberstalking — bu raqamli vositalar yordamida inson shaxsiy hayoti, sha'ni va qadr-qimmatiga tajovuz qiluvchi, ruhiy bosim yoki tazyiq shaklida kechuvchi, ijtimoiy xavf darajasi yuqori bo'lgan xatti-harakatlar yig'indisidir.

Ushbu tushuncha nafaqat kibernakon xavfsizligi, balki inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash bilan ham bevosita bog'liq bo'lib, shaxsning axborot xavfsizligi, shaxsiy hayot daxlsizligi va raqamli erkinligini buzishga qaratilgan yangi turdagi ijtimoiy-huquqiy tahdid sifatida qaraladi.

Kiberstalking tor ma'noda soxta ma'lumotlar tarqatish, tuhmat, shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlash, jinsiy aloqa yoki shantaj shaklidagi xabarlar yuborish kabi xatti-harakatlarni o'z ichiga oladi. Keng ma'noda esa u shaxsni raqamli tarmoq orqali ruhiy bosim ostiga olish, shaxsiy hayotga noqonuniy aralashish, yoki ommaviy tahqir orqali obro'sini to'kish kabi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi<sup>2</sup>.

Fikrimizcha, kiberstalking zamonaviy axborot makonida shakllanayotgan eng murakkab va xavfli ijtimoiy-huquqiy hodisalardan biridir. Chunki u nafaqat texnik vositalar orqali amalga oshiriladigan bezovtalik yoki ta'qib shakli, balki insonning shaxsiy hayotiga, ruhiy osoyishtaligiga hamda axloqiy qadriyatlariga tahdid soluvchi yangi turdagi zo'ravonlik ko'rinishidir. Kiberstalkingning asosiy xavfi shundaki, u an'anaviy jinoyatlar kabi ko'zga tashlanmaydi, ko'p hollarda anonim tarzda amalga oshiriladi va jabrlanuvchi tomonidan darhol aniqlanishi qiyin kechadi. Shu boisdan, bunday xatti-harakatlarga nisbatan faqat texnik yoki psixologik yondashuv emas, balki chuqur huquqiy mexanizmlarni joriy etish zarur. Muallifning nuqtai nazaricha, kiberstalkingni jinoyat sifatida mustaqil huquqiy kategoriya sifatida e'tirof etish, unga nisbatan jazo choralarini aniq belgilash, shuningdek, profilaktik va ma'rifiy ishlarni kuchaytirish kiberxavfsizlik tizimining barqarorligi hamda inson huquqlarini himoya qilishning muhim omili bo'lib xizmat qiladi.

Kiberstalking o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra bir nechta ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Jumladan, u notanish shaxslar tomonidan ijtimoiy tarmoqlarda tasodifiy jabrlanuvchilarni tanlab, ularni muntazam kuzatish va bezovta qilish shaklida sodir etilishi mumkin. Shuningdek, genderga asoslangan kiberstalking — onlayn makonda jinsiy zo'ravonlik, kamsitish yoki tahdid orqali amalga oshiriladigan raqamli ta'qib ko'rinishidir. Ayrim hollarda, bu jarayon oila a'zolari yoki intim munosabatda bo'lgan shaxslar tomonidan ro'y berib, an'anaviy oilaviy zo'ravonlikning virtual ko'rinishiga

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son. <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>.

<sup>2</sup> Koryakina T.A. Kiberstalking: ponyatie i klassifikatsiya // Vestnik nauki. 2024 yil. №10 (79). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/kiberstalking-ponyatie-i-klassifikatsiya> (ma'lumotlar obrashcheniya: 12.09.2025).



aylanadi. Taniqli shaxslarga nisbatan sodir etiladigan kiberstalking esa ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda soxta ma'lumotlar tarqatish, tuhmat yoki obro'sini to'kish orqali namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, korporativ kiberstalking shakli ham mavjud bo'lib, u tashkilotlar yoki shaxslar tomonidan ma'lum bir jismoniy yoki yuridik shaxsga nisbatan moliyaviy zarar yetkazish, raqobatni bartaraf etish yoki qasos olish maqsadida amalga oshiriladi<sup>3</sup>.

Bizningcha ham, kiberstalking turlarining xilma-xilligi ushbu hodisaning murakkab va ko'p qirrali ekanligidan dalolat beradi. Har bir tur o'ziga xos ijtimoiy va psixologik oqibatlariga ega bo'lib, ularni bartaraf etish faqat texnik vositalar emas, balki huquqiy, ma'naviy va tarbiyaviy choralarni uyg'unlashtirish orqali mumkin. Ayniqsa genderga asoslangan va oila doirasida sodir etiladigan kiber ta'qiblar jamiyatda axloqiy qadriyatlar va huquqiy madaniyatni mustahkamlash zaruratini ko'rsatadi. Shu boisdan, muallif kiberstalkingning har bir ko'rinishi bo'yicha maxsus huquqiy yondashuvlarni ishlab chiqish va ijtimoiy ongini oshirishni muhim deb hisoblaydi.

Ilmiy adabiyotlarda kiberstalking subyektlari turli motiv va maqsadlarga ko'ra bir necha toifalarga ajratiladi. Ulardan eng keng tarqalganlari orasida qasoskor kiberstalkerlar alohida o'rin tutadi, ular odatda shaxsiy adovat yoki intiqom hissi ta'sirida, jabrlanuvchiga nisbatan shafqatsiz va davomli ta'qib harakatlarini amalga oshiradilar. O'yinchi kiberstalkerlar esa buning aksiga, jiddiy motivsiz, asosan ermak yoki zavq olish maqsadida boshqalarni bezovta qiluvchi shaxslardir. Intim kiberstalkerlar odatda rad etilgan munosabat yoki hissiy bog'liqlik tufayli o'z maqsadlariga erisha olmagach, virtual ta'qibni vosita sifatida tanlaydilar. Guruhiy kiberstalkerlar esa ma'lum mafkuraviy, siyosiy yoki iqtisodiy manfaatlar yo'lida birlashgan anonim jamoalar bo'lib, ularning faoliyati ko'pincha tizimli, muvofiqlashtirilgan va ijtimoiy rezonansga ega bo'lgan kiberhujumlar shaklida namoyon bo'ladi<sup>4</sup>.

Xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, kiberstalking ko'plab rivojlangan mamlakatlarda mustaqil jinoyat turi sifatida e'tirof etilgan va unga qarshi kurashishning aniq huquqiy mexanizmlari ishlab chiqilgan. Jumladan, Avstraliyada qabul qilingan "Family Law Act 1975 (Cth)" qonuni<sup>5</sup>da oilaviy zo'ravonlikning barcha shakllari, shu jumladan elektron vositalar orqali amalga oshiriladigan ta'qib harakatlari ham qamrab olingan. AQShning ayrim shtatlarida esa "Megan qonuni" asosida 21 yoshdan katta shaxslarning voyaga yetmaganlarga nisbatan kiberstalking sodir etishi jinoyat deb topiladi. Kaliforniya shtatida bu holat 1999-yildan boshlab Jinoyat kodeksida alohida jinoyat sifatida belgilangan bo'lib, 2009-yildan maktab o'quvchilarini kiber ta'qibdan himoya qiluvchi maxsus tartib joriy etilgan. Florida shtati qonunchiligida kiberstalking birinchi darajali jinoyat sifatida tasniflanadi va hattoki voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan bunday xatti-harakatlar uchun ota-onalar ham ma'muriy yoki jinoyi javobgarlikka tortilishi nazarda tutilgan. Shu bilan birga, Hindiston hamda Filippinda 2013-2014-yillarda kiber ta'qibni jinoyat deb e'tirof etuvchi maxsus qonunlar qabul qilingan. Ushbu xorijiy tajribalar shuni anglatadiki, kiberstalkingni faqat texnik xavfsizlik choralarigina emas, balki puxta o'ylangan huquqiy mexanizmlar orqali tartibga solish, inson huquqlari va raqamli xavfsizlikni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

<sup>3</sup> Гульнара А.Н. Киберсталкинг в российском правовом поле // Закон и право. 2024. №10. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/kiberstalking-v-rossiyskom-pravovom-pole> (дата обращения: 02.09.2025).

<sup>4</sup> Смирнов В.М., Ежунова Е.Р. Общественная опасность киберсталкинга и его последствия // Криминологический журнал. 2023. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/obschestvennaya-opasnost-kiberstalkinga-i-ego-posledstviya> (дата обращения: 04.09.2025).

<sup>5</sup> Federal Register of Legislation. <https://www.legislation.gov.au/C2004A00275/2019-03-10/text>.

<sup>6</sup> International Megan's Law (H.R. 515): Necessary? Constitutional? <https://pcjc.blogs.pace.edu/2016/02/11/international-megans-law-h-r-515-necessary-constitutional/>



O'zbekiston Respublikasida kiberxavfsizlikni ta'minlash va raqamli madaniyatni rivojlantirish sohasida muhim huquqiy va strategik asoslar yaratilgan. Xususan, "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi, "Axborot xavfsizligi konsepsiyasi" hamda "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonun mazkur yo'nalishdagi davlat siyosatining huquqiy poydevorini tashkil etadi. Ushbu hujjatlar axborot texnologiyalaridan xavfsiz foydalanish, fuqarolarning raqamli huquqlarini himoya qilish hamda kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirishga qaratilgan bo'lsa-da, amaldagi qonunchilikda "kiberstalking" tushunchasi aniq tarzda ta'riflanmagan. Bu esa mazkur xatti-harakatlarni huquqiy baholashda va ularga nisbatan jazo choralarini qo'llashda ma'lum qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Shu bois, kiber ta'qibni jinoyat sifatida alohida modda tarzida qonunchilikda mustahkamlash, ayniqsa gender asosidagi kiberzo'ravonlik holatlarini huquqiy jihatdan aniqlashtirish va javobgarlik mexanizmlarini belgilash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, yoshlar o'rtasida raqamli madaniyatni shakllantirish, kiberetika va axborot xavfsizligi asoslarini o'qitish, axborot texnologiyalari sohasida huquqiy savodxonlikni oshirish - kiberta'qibning oldini olishning eng muhim shartlaridan biridir.

Kibermakon inson hayotining ajralmas qismiga aylangan hozirgi davrda yoshlarni kiber ta'qibdan himoya qilish masalasi inson huquqlarini ta'minlash sohasidagi eng dolzarb yo'nalishlardan biri sifatida alohida e'tibor talab qiladi. Mazkur jarayonda huquqiy, tashkiliy va ma'rifiy mexanizmlarni uyg'unlashtirish zarur. Avvalo, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga "kiberstalking" atamasini aks ettiruvchi alohida modda kiritish, unda genderga asoslangan kiberzo'ravonlik holatlarini mustaqil kvalifikatsion belgi sifatida ko'rsatish lozim. Shuningdek, yoshlar o'rtasida onlayn xulq madaniyatini rivojlantirish maqsadida oliy ta'lim muassasalarida "kiberetika" fanini joriy etish, u orqali kiberxavfsizlik, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va internet etikasi masalalarini chuqur o'rgatish muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, sun'iy intellekt asosidagi monitoring vositalaridan foydalanib, kiberxavfsizlikni nazorat qilish tizimini kuchaytirish, biroq bu jarayonda inson huquq va erkinliklariga aralashmaslik mexanizmlarini ishlab chiqish talab etiladi. Jurnalistlar, bloggerlar va IT-soha mutaxassislari uchun kiber huquq hamda axborot etikasi bo'yicha maxsus malaka oshirish dasturlarini yaratish, jamiyatda kiberxulq madaniyatini mustahkamlashning muhim omillaridan biridir. Shu bilan birga, gender asosidagi kiber ta'qibni oldini olish maqsadida ijtimoiy axborot kampaniyalari, o'quv dasturlari va onlayn targ'ibot loyihalarini amalga oshirish yoshlar ongida raqamli xavfsizlik mas'uliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.